

HOZIRGI ZAMON SHE'RIYATIDA JANR VA SHAKLLAR RANG-BARANGLIGI

(Usmon Azim va Xurshid Davron ijodi misolida)

F.N.Buriyeva,

o'qituvchi, O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Samarqand

Annotasiya

Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiyotining 70-yillar shoirlari avlodiga mansub bo'lgan Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi janrlar va shakllar xilmaxilligi haqida so'z yuritiladi. Ular ijodidagi lirik janr va shakllarning dramatik hamda epiklik xususiyatlari haqida nazariy talqinlar keltiriladi, janriy jihatdan tasniflanadi, qiyosiy tahlili beriladi.

Kalit so'zlar: poetik g'oya, liro-epiklik, esse, badia, doston, janr, shakl, she'riy roman, ballada, an'anaviy va noan'anaviy janrlar.

Ma'lumki, Xurshid Davron, Usmon Azim 70-yillar shoirlari avlodiga mansub ijodkorlar bo'lib, ularning adabiyotga kirib kelishi salkam yetmish yil davomida jamiyatni qo'rquv va yolg'on g'oyalar bilan boshqarib kelgan katta bir imperiyaning, yakkahokimlikka asoslangan tuzumning tanazzulga yuz tutgan davri edi. Avvaliga ramzlar, ishoralar bilan boshlanib, keyinchalik bir qadar publisistik tus olgan she'riyat ozodlik, erk, Vatan istiqboli xususida fikr yurita boshlagan, ko'p yillar ko'ngil qa'rida yashirinib yotgan ezgu a'mollar, orzu-havaslar, qadriyatlar nafasi sezila boshlagan edi. Tabiiyki, bunday tarixiy burilish pallalarida ijodkor qalbida yetilgan poetik g'oya o'zini to'la-to'kis ifoda etish uchun turli shakl va janrlarga murojaat qila boshlaydi. Usmon Azim, Xurshid Davron ijodida turli tuman she'riy shakl va janrlarga murojaat qilishning boisi shunda bo'lsa kerak. Go'yoki poetik g'oya o'zining estetik ta'sirdorligini kitobxonga yetkazish maqsadida yangidan yangi shakllar izlayotgandek bir taassurot qoldiradi. Jumladan,

liro-epiklik har ikkala shoir ijodidagi o'zak shakllardandir. Bunday asarlar lirika va proza oralig'ida yashovchi o'ziga xos janrlar guruhi. Bu o'ziga xoslik uning ikki tomonlama tabiati bilan bog'liq bo'lib, bir tomondan lirikaga, ikkinchi tomonda prozaik asarlarga o'xshab ketadi. Voqea-hodisalarga, xarakterlarning o'sish tarixiga shoir shaxsining faol munosabati, sujet tarkibiy qismlari uzviyligida muallif kechinmalarining uyg'unlashib ketishi, kompozisiyada lirik ibtido, lirik chekinish va xotima, lirik so'roq va murojaatlarning mustahkam qaror topganligi bunday janrlardagi asarlarning muhim belgisidir. Albatta, doston bilan balladaga yoki dramatik doston bilan she'riy roman o'rtasidagi muvozanat aynan bir xil emas. Biz yuqorida ko'rib o'tganimiz, liro-epik janrlarning umumiy xususiyatlari. Shu bilan birga har bir janrning o'z individual jihatlari ham borki, shularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Xurshid Davron ijodida ham, Usmon Azim ijodida ham esse, badia janriga mansub asarlar mavjud. Badia asli badiiy-publisistik janr hisoblanadi. Biroq ikkala shoir tomonidan yozilgan badialarning tabiati sal boshqacharoq. Bular ma'lum darajada lirikaning ifoda tarzi ham boshqa ifoda usullariga uyg'unlashib keladi. Masalan, Xurshid Davronning "Tarixiy va ma'rifiy badialar" nomi ostida chop etilgan "Bibixonim qissasi yoki tugamagan doston" asari ana shunday xarakterda. Xurshid Davronning ushbu asarini Bo'riboy Axmedovning "Mirzo Ulug'bek" badiasi bilan qiyoslaganda hajm jihatdan katta tafovut mavjud. B. Axmedovning asari esse-roman Xurshid Davronning asari esa sarlavhada aytilganidek, doston yo qissa hajmiga to'g'ri keladi. Aksariyat liro-epik janrlar borasida adabiyotshunosligimizda muayyan ishlar amalga oshirilgan, ular to'g'risida tegishli xulosalarga kelingan. Biroq o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi bo'lgan ayrim janrlar xususida to'xtalib o'tishimiz zarur. Ana shunday janrlardan biri dramatik dostonidir. Usmon Azim, Xurshid Davron ijodida ham uchraydigan ushbu janr o'zbek adabiyoti uchun noodatiy ifoda ko'rinishiga ega bo'lib, uning ilk namunalari adabiyotimizda o'tgan asrning 70-yillarida yaratildi. Ushbu janrning adabiyotimizdagi yaxshi namunalari sifatida A. Oripovning

“Jannatga yo‘l”, Usmon Azimning “Xalil Sulton”, “Toshpari”, Xurshid Davronning “Uyg‘oq toshlar ” asarlarini aytib o‘tish mumkin.

“Dramatizm va lirizm uyg‘unligi she’riy dramalarda, lirik dostonlarda, she’riy romanlarda hamda balladalarda hamda balladalarda ham uchratish mumkin. Lekin bu uyg‘unlik ularda dramatik dostonlardagichalik boshdan oxir aktiv ishtirok etmaydi, balki g‘oyaviy mazmun taqazosiga ko‘ra muayyan o‘rinlardagina namoyon bo‘ladi. Dramatizm va lirizm uyg‘unligi sanab o‘tilgan janrlarning tabiatini belgilovchi asos hisoblanmaydi. She’riy dramalarda dramatizm va epizm bir butunligi, lirik dostonlar va she’riy romanlarda lirizm va epizm yaxlitligi yetakchi tasvir birliklari hisoblanadi. Balladalar ixcham sujetga asoslanganligi uchun dramatizm va lirizm uyg‘unligi yarq etib ko‘zga tashlanavermaydi, qolaversa, ularda epiklikning rolini ham kamsitib bo‘lmaydi”.¹

Usmon Azimning 1995-yil chop etilgan saylanmasida o‘n beshta ballada o‘rin olgan. Shoir balladalarining muhim xususiyati, boshqa balladalardan farqi aksariyati dialogik nutq asosiga qurilgan. Bizningcha, bu tajriba keyinchalik uning dramatik doston, drama janrlariga o‘tib ketishiga zamin hozirlagan.

Ballada asli eng kamida ikki tugunli voqea qalamga olinib, xarakter ko‘tarinki, yarim afsonaviy yoki qahramonona tus olgan joyda paydo bo‘ladi. Bu jihatdan Usmon Azim balladalari talabga javob beradi. Chunonchi, uning Kenja botir, O‘rtancha botir, Toshpari obrazlari o‘ziga xos yarim afsonaviylik koloritini tashiydi. “Usmon Azimning “Tosh pari” asari balladan ko‘ra dramatik doston janri talablariga ko‘proq muvofiq keladi. Folklor obrazlari asosda yaratilgan ushbu asar sujetida dramatik doston janrining bor unsurlari bo‘lgan ramziylikni ham, drammatizm va lirizm uyg‘unligini ham, avj nuqtalarning ko‘tarinki ifodasini ham, dramatizmning tez sur‘atlarda rivojlanishini ham, shakliy o‘xshashlikni ham, konflikt va xarakter yaratishdagi o‘ziga xoslikni ham ko‘rishimiz mumkin. Shularga tayanib, “Tosh pari” asarini dramatik dostonlar sirasiga kiritsa bo‘ladi”.² Demak, shuni ham alohida qayd

¹Ш.Хасанов. Замонавий дoston поэтикаси. Самарқанд-2001 йил, 98-бет.

² Ўша манба, 99-бет.

etib o'tmoq kerakki, Usmon Azim talqinida ishlatilgan ballada hamisha ham janr ma'nosini ifoda etavermaydi. Masalan, uning 2022 yil "Factor books" tomonidan chop etilgan "Bir parcha osmon" kitobiga "Yomg'ir haqida yana bir ballada" she'ri kiritilgan bo'lib, bundagi "ballada"-intim she'r ma'nosida qo'llanilgan. Shuningdek, ayrim kitoblarida, jumladan, "Saylanma"sida ham "ballada"-manzarali(peyzaj) she'r, personajli lirika ma'nosida ham keladi.

Umuman, Usmon Azim ijodida sarlavhasi janr yoki she'riy shakl nomlanishi bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy atamalar uchrab qoladi. Masalan, "Saylanma"ning 280-betida "Nodramatik ballada yoki beg'am marsh" deb atalgan she'ri kiritilgan.

Usmon Azimning mavsumiy she'rlar turkumlari bor. Bular-"Tazarru bog'lari. Muqaddima", "Qishki bog'", "Yozgi bog'", "Kuzgi bog'", "Kuzgi bog' II", "Kuzgi bog' III" kabilardir. Bu turkumlar bir qarashda xalq og'zaki ijodidagi mavsumiy qo'shiqlarga o'xshab ko'rinsa-da, ichki pafos nuqtayi nazaridan tamomila yangi bir original ijod namunalari.

Garchi bu turkumlar intellektual-falsafiy ko'rinish kasb etsa-da, biroq bular odam va olam munosabatlarining so'fiyona talqinlariga yaqinlashib keladi. Bu she'rlarning ob'yekti ham, sub'yekti ham bir vaqtning o'zida ko'ngil bo'lganligi bois ularni meditatif she'riyatning keyingi paytlarda yaratilgan ajoyib namunalari deyish mumkin. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda Usmon Azim va Xurshid Davron she'riyatida namoyon bo'lgan, yashashga qodirligini davr sinovidan o'tkazib kelayotgan janr va shakllarni quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin.

Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi janr va shakllar		
1.An'anaviy janr va shakllar	2.Noan'anaviy janr va shakllar	3.Folklor janrlari
doston ballada sonetlar turkumi masnaviy musallas (terset) murabba manzara (peyzaj) turkumi	dramatik doston dramatik ballada she'riy qissa xokku tank badia(esse) oq she'r sarbast	baxshiyona rivoyatlar turkumi masal bolalarga atalgan she'rlar qo'shiq lapar

marsiya bag'ishlov		
-----------------------	--	--

70-yillar shoirlar avlodini birlashtiradigan mushtarak jihatlar, poetik uslublarini yaqinlashtiradigan bir qator nuqtalar mavjudki, bu erk tuyg'usi, ozodlik qayg'usi, Vatan istiqloli va millat hurriyati bilan bog'liq egizak tushunchalardir. Bu hayotbaxsh anana ular murojaat etgan rang-barang she'riy janr va shakllarda ham namoyon bo'ldi. Xalq va ona Yurt oldidagi farzandlik hissi, badiiy so'z oldidagi mas'uliyat, e'tiqodiga bo'lgan mustahkam ishonch, ko'ngil sarhadlarida jo'sh urgan poetik g'oyalar o'zligini to'laqonli ifoda etish uchun shunday keng maydon izladiki, bu ular murojaat etgan janr va shakllar xilma-xilligida ham o'zligini namoyon etdi. Hozirgi she'riyatimizda Xurshid Davron va Usmon Azim kabi ko'p janr-u shakllarda ijod qilgan shoirlar kamdan kam uchraydi.

Ularning adabiyotimiz oldidagi xizmatlari nafaqat o'zlarigacha bo'lgan she'riy janr va shakllarga yangicha sayqal berganligi, hayot haqiqatiga yaqinlashtirganliklari, balki dramaturgiya, nasr, liro-epik janrlar, badiiy-publisistika kabi bir-biridan keskin farq qiluvchi yo'nalishlar arsenalini boyitganliklari bilan ham ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. 2-jild. O'zFA "Fan" nashriyoti. Tosh.-248 bet
2. Ahmad A'zamov. Mas'ul so'z. Ibrohim Haqqulov. Badiiy so'z shukuhi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1987.- 264 bet
3. D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr-T. 400 bet
4. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 1995-yil.- 272 bet.
5. Sharq mumtoz poetikasi talqinlari. Hamidulla Boltaboyev talqinlarida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2008, 427 bet
6. Xurshid Davron. Qagnus. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1987.-208 bet.
7. Xurshid Davron. Shahardagi olma daraxti. "Yosh gvardiya" nashriyoti. Toshkent. 1979-yil.-39 bet.
8. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-ochmagan-ovoz.html>